

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

XOLIQOV MUHRIDDIN MARDIQULOVICH

**MEVA-SABZAVOTLI PASTILA TAYYORLASHDA QURITISH
JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH**

**02.00.16 - Kimyo texnologiyasi va oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlari va
apparatlari**

**TEXNIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro - 2025

**Texnika fanlar bo‘yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi
avtoreferat mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Xoliqov Muhriddin Mardiqulovich

Meva-sabzavotli pastila tayyorlashda quritish jarayonini takomillashtirish.....3

Холиков Мухриддин Мардикулович

Совершенствование процесса сушки при приготовлении

фруктово-овощных пастил.....21

Kholiqov Mukhriddin

Improving the drying process in the production of fruit and vegetable pastilles...39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....42

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

XOLIQOV MUHRIDDIN MARDIQULOVICH

**MEVA-SABZAVOTLI PASTILA TAYYORLASHDA QURITISH
JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH**

**02.00.16 - Kimyo texnologiyasi va oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlari va
apparatlari**

**TEXNIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/T4602 raqam bilan ro'yhatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Navoiy davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.bstu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Djurayev Xayrullo Fayziyevich texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Qurbonov Jamshed Madjidovich texnika fanlari doktori, professor Barakayev Nusratilla Rajabovich texnika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi DSc 03/28.02.2022.T.101.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 5 dekabr soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (99865)223-78-84, Faks: (99865)223-78-84, e-mail: bmti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№402 raqami bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (99865)223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 21 noyabr kuni tarqatildi.
(2025 yil 9 sentabrdagi № 13-raqamli reestr bayonnomasi).



S.F. Fozilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

A.T. Oltiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

I.B. Isabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyaning annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda meva va sabzavotlarni kompleks qayta ishlash orqali vitaminlarga boy, uzoq saqlanish muddatiga ega bo'lgan yuqori sifatli quritilgan mahsulotlar ishlab chiqarish sohalarida yuqori darajada o'sish kuzatilmoqda. Tarkibi turli hil meva va sabzavotlardan tashkil topgan, tabiiy xossasi saqlangan, vitaminlarga boy, yumshoq strukturaga ega bo'lgan quritilgan pastilalar ishlab chiqish oziq-ovqat sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra, qandolat mahsulotlarining yangi turlarini yaratish, qandolat mahsulotlari va shirinliklar uchun yangi qo'shimchalar ishlab chiqish, shuningdek tarkibi har xil meva va sabzavotlarning aralashmasi asosida tayyorlangan gomogen sistemali pyureni qayta ishlash orqali quritilgan pastila ishlab chiqarish tizimini tashkil etishda gidromexanik, issiqlik va moddaalmashinuv jarayonlarini amalga oshirishning energiya tejamkor texnika va texnologiyalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda meva va sabzavotlarning ma'lum bir turlari kesimida pyure tayyorlash, pastila ishlab chiqarishning samarali tizimini tashkil etish uchun zamon talablariga mos kompleks qayta ishlashning texnika va texnologiyalarini yaratish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada pastila uchun birlamchi xomashyo hisoblangan pyureni tayyorlash jarayonini amalga oshirishda gidromexanik jarayonlarni tadqiq qilish, meva hamda sabzavot turlarining maqbul modulli nisbatlari kesimida pyureni tayyorlash va quritilayotgan pastilaning butun hajmi bo'yicha strukturaning bir xilligini ta'minlashga qaratilgan tadqiqot ishlarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda yetishtirilayotgan meva va sabzavotlarni transportlash, eksportbopligini ta'minlash maqsadida quritish tizimining samarali texnika va texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha muayyan darajada ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. So'nggi yillarda oziq-ovqat sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish, raqobatbardosh mahsulotlar turlari va hajmini kengaytirish, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash salohiyatini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza, sifat ko'rsatkichi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish"¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan, meva va sabzavotlar aralashmasi asosida bir xil gomogen sistemaga ega bo'lgan pastila pyuresini tayyorlash va quritish jarayonini tashkil etish tizimida energiya tejamkor texnika va texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 29-iyuldagi PQ-4406-sonli "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 23-oktabrdagi PQ-5853-sonli "O'zbekiston Respublikasi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - yil 28 - yanvardagi PF - 60 - son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni

qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030–yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi, 2018-yil 19-yanvardagi PQ-3484-sonli “Oziq-ovqat tarmog'ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2018-yil 26-apreldagi PQ-3680-sonli “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V “Qishloq xo'jalik, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Meva va sabzavotlarni kompleks qayta ishlash tizimida issiqlik va moddaalmashinuv jarayonlarini modellashtirish va optimallashtirish, oziq-ovqat sanoati uchun qo'shimcha mahsulotlar ishlab chiqish va uni quritish jarayoniga tegishli masalalarni yechish hamda saqlash texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha xorijlik olimlardan K.A. Fikiin, D.M. Barrett, L.P. Somogyi, H. Ramasvamy, M.G. Skite, S.A. Rayye, K.A. Andjell, L.Erdeli, E.Almati, T.Sharoy, G.D.Averin, N.K.Juravskaya, E.I. Kauxcheshvili, A.A.Antonov, K.P.Venger, A.A. Antonov, G.A. Belozarov, M.A. Dibirasulayev, V.N. Koreshkov, respublikamiz olimlaridan Z.S. Salimov, A.A. Artiqov, O.F. Safarov, X.S. Nurmuhamedov, J.M. Qurbonov, X.F. Jo'rayev, Q.O. Dodayev, S.G. Zokirov, J.E. Safarov va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Yuqoridagi olimlar tomonidan meva va sabzavotlarni quritishda energiya tejamkor texnologiyalar, issiqlik-massa almashinuvi sifatini saqlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Shuningdek, qishloq xo'jalik mahsulotlarining strukturaviy tuzilishi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, eti o'ta yumshoq, tez eziluvchi, tarkibida suv miqdori ko'p bo'lgan meva va sabzavotlarni bo'laklangan holatda yoki butunligicha quritish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va muhim ilmiy-amaliy yutuqlarga erishilgan.

Ammo, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, hozirgi kunda mamlakatimizda qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarning isrofgarchiligini bartaraf etish maqsadida eti o'ta yumshoq strukturaga ega bo'lgan meva va sabzavotlarning maqbul modulli nisbatlari asosida pyure tayyorlash va uni pastila shaklida quritish jarayonining texnika va texnologiyalarini joriy etish bo'yicha yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu muammoni yechishda yurtimizdagi mavjud resurslardan foydalanib, ularni ishlab chiqish texnologiyalarini joriy etish, samaradorligi yuqori bo'lgan arzon va ekologik zararsiz meva va sabzavotlarning quritilgan pastilasini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ishlari muhim hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejalarining “Meva va

sabzavotlarni kompleks qayta ishlashda chiqindisiz, energiya tejaydigan innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish” (2022-2024 yy) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi meva-sabzavotli pastila tayyorlashda quritish jarayonini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

meva va sabzavotlarning navi, turi, strukturaviy tuzilishi, tarkibidagi namlik miqdorlari hamda quritishga yaroqlilik darajalarini o‘rganish va tadqiq qilish;

bir jinsli sistemaga ega bo‘lgan pyureni tayyorlash uchun protirkalash hamda aralashtirish jarayonlarini tadqiq qilish, ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ideal aralashish qonuniyatlarini o‘rganish;

bir jinsli sistemaga ega bo‘lgan pyureni tayyorlash uchun tanlangan ikki va undan ortiq meva va sabzavotlar aralashmasining maqbul modulli nisbatlarini eksperimental tadqiq qilish;

aralashtirish jarayonini matematik modelini ishlab chiqish;

pastilaga dastlabki ishlov berish va quritish bosqichida issiqlik ta’sir ettirish usullarini asoslash;

mahsulot tarkibidagi namlik va harorat o‘zgarishlarini tavsiflovchi quritish jarayonining matematik modelini ishlab chiqish;

quritilgan pastila olish jarayonining texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlash va samaradorlikni baholash.

Tadqiqotning ob’yekti sifatida namlik darajasi yuqori, eti yumshoq, quritishga yaroqsiz bo‘lgan qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan meva va sabzavotlar olingan.

Tadqiqotning predmetini qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan meva va sabzavotlarning maqbul modulli nisbatlari asosida pyure tayyorlash uchun protirkalash va aralashtirish jarayonining qonuniyatlari, pastilani dastlabki suvsizlantirish va quritish jarayonlarining texnologik parametrlari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotlarida meva va sabzavotlarning fizik-kimyoviy xossalarini aniqlashning umum qabul qilingan standart usullari, pastilaning bir jinsli sistemaviyligini tahlil qilishda mikroskopik usullar, jarayonning tizimli tahlili, eksperimentni ko‘p faktorli rejalashtirish statistik-matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

meva va sabzavotlar pyuresining donadorlik darajasi aralashmaning modulli nisbatiga, aralashtirish jarayonining intensivligiga, ishchi organning konstruksiyasiga, xomashyoning qurilma markazida $0 \leq r \leq r_m$ hamda yon tomonlarida $r_m \leq r \leq D/r$ hosil qilinayotgan aralashish trayektoriyasiga bog‘liqligi asoslangan;

pastila tarkibidagi namlikning chiqishini jadallashtirish, mikroelementlar, vitaminlarni saqlab qolish, tayyor mahsulotning saqlanish muddatini oshirish maqsadida meva va sabzavotlar pyuresini dastlabki suvsizlantirish bosqichida 400, 600, 800 Vt quvvatda 2450 MHz yuqori chastotali elektromagnit maydonida ishlov berish rejimlari asoslangan;

meva va sabzavotlar pyuresini tayyorlashda ideal aralashish qonuniyatlarini, dastlabki suvsizlantirish va quritish bosqichida namlik va harorat o'zgarishlarini ifodalovchi matematik model ishlab chiqilgan;

amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida, kontaktli issiqlik uzatish prinsipiga asoslangan, vakuum tizimida ishlovchi quritish qurilmasining maqbul konstruksiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

meva va sabzavotlar pastilasini noan'anaviy usulda quritish jarayoni va qurilmasining konstruktiv va texnologik parametrlari aniqlangan;

konsistensiyasi yumshoq pastila ishlab chiqarish uchun dastlabki suvsizlantirish va quritish bosqichlarining maqbul rejimlari asoslangan;

tarkibi turli xil meva va sabzavotlar yanchilmasidan tashkil topgan, bir xil donadorlik darajasiga ega bo'lgan yuqori sifatli pastila ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy va eksperimental natijalarni qayta ishlash, dastlabki ishlov berish hamda quritish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda statistik va matematik modellashtirish usullaridan, MATLAB dasturiy ta'minotidan foydalanilganligi, eksperimental tadqiqot natijalarining nazariy natijalarga mosligi ularning adekvatligi hamda yarim sanoat tadqiqotlarida foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati namlik darajasi yuqori, mag'zi o'ta yumshoq meva va sabzavotlarning maqbul moduli nisbati asosida gomogen sistemani hosil qilishda ideal aralashish qonuniyatlarining aniqlanganligi, dastlabki suvsizlantirish bosqichida O'YUCH elektomagnet maydonining maqbul kuchlanish va chastota diapazonida ishlov berish hamda quritish jarayonining rejimlari asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati meva va sabzavotlar aralashmasi asosida pyure tayyorlash, quritilgan pastila ishlab chiqarishda quritish jarayonining optimal rejimlarini ishlab chiqish, quritish qurilmasining samaradorligini oshirish hamda takomillashgan ishlov berish texnologiyasining tavsiya etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Meva-sabzavotli pastila tayyorlashda quritish jarayonini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

meva va sabzavotlar yanchilmasini tayyorlash, dastlabki suvsizlantirish va pastila olishga mo'ljallangan kombinatsion quritish qurilmasi "Gala River" qo'shma korxonasida joriy etilgan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 19.04.2025 yildagi 19-40/04-25 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, donadorlik darajasi bir xil quritilgan pastila ishlab chiqarishga hamda quritish jarayonining davomiyligini 1,3-1,5 martaga kamaytirish imkonini bergan;

pastilani quritish uchun kontaktli issiqlik uzatish prinsipiga asoslangan, vakuum tizimida ishlovchi quritish qurilmasi "Livadiya Bukhara" MCHJda joriy etilgan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 19.04.2025 yildagi 19-40/04-25 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, konsistensiyasi yumshoq, och-qizil, to'q-qizil rangli pastila olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ishlar e'lon qilingan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari (PhD) asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, 8 tasi xorijiy va 2 tasi respublika jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsad va vazifalari, tadqiqot ob'yekti va predmeti asoslangan, respublika fan va texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy va respublika miqyosidagi tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Meva va sabzavotlarning quritilgan pastilasini tayyorlashda quritish jarayoni va qurilmalarini tadbiiq etishning istiqbollari”** deb nomlangan birinchi bobida meva va sabzavotlarning navi, turi, strukturaviy tuzilishi, tarkibidagi namlik miqdorlari, quritishga yaroqlilik darajalari, bir jinsli gomogen sistemaga ega bo'lgan pyureni tayyorlashda qo'llaniladigan aralashtirgichlar konstruksiyasi, aralashish qonuniyatlari va ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan.

Pastilaga dastlabki ishlov berish va quritish bosqichida qo'llaniladigan quritish usullari va quritgichlarning konstruksiyalari tahlil qilinib, issiqlik ta'sir ettirish usullari, mahsulot tarkibidagi namlik va harorat o'zgarishlari tadqiq qilingan.


Dissertatsiyaning **“Meva va sabzavotlar pastilasini tayyorlash va quritish jarayonini eksperimental tadqiq qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida pastila pyuresini tayyorlashda aralashtirish jarayonini eksperimental tadqiq qilish usullari keltirilgan. Har xil meva va sabzavotlardan tayyorlangan aralashmani bir jinsli muhitga yaqin bo'lgan faza sistemasida aralashtirish uchun yakorli aralashtirgich qo'llanilib, tadqiqotlar o'tkazildi. Gomogen sistemaga yaqin bo'lgan aralashma tayyorlashda, ishchi organi yakordan tashkil topgan aralashtirgichning samaradorligi yuqori bo'lib, aralashtirgichning butun ichki hajmi bo'yicha aralashish yuzaga kelib, donadorlik darajasi bir xil bo'lgan sistemani hosil qilishga erishildi.

Aralashtirish qurilmasi yordamida bir xil sistemaga ega bo'lgan pyureni hosil bo'lish darajasi, xomashyo harakat oqimining butun hajm bo'yicha tashkil etish samaradorligiga bog'liq. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, aralashtirish jarayonining davomiyligi 6-7 minutni, ishchi organning aylanish tezligi 60-90 ayl/min tashkil etganda Nyutonning jismlararo tortishish qonuniga muvofiq muhitlararo bir jinsli sistemaning hosil bo'lishi kuzatildi. Yakorli aralashtirgich ishchi organining turli xil aylanishlar chastotasida (30, 60 va 90 ayl/min) tayyorlangan aralashmaning donadorlik darajasi mikroskopik tadqiq qilindi.

Mikroskopik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ishchi organning aylanish chastotasi 30 ayl/min tashkil etganda aralashma tarkibida o'lchami 3-4 mm, 60 ayl/min bo'lganda 1-2 mm hamda 90 ayl/min tashkil etganda o'lchami 0,1-1 mm bo'lgan zarrachalar mavjudligi aniqlandi.

Meva va sabzavotlarning modulli aralashmasi asosida tayyorlangan pastila pyuresini quritish jarayonini amalga oshirishda, namlikning chiqishini jadallashtirish uchun chastotasi 2450 MHz bo'lgan O'YUCH elektr maydon ta'sirida dastlabki ishlov berish rejimi qo'llanilib, elektr maydonning ta'sir qonuniyatlari o'rganildi. Mahsulotning butun hajmi bo'yicha bir meyorda issiqlikning hosil bo'lishi, isitish jarayonining lahzali amalga oshishi, kuchlanish tarmoqdan uzilish lazasida isitish jarayonining to'xtashi, suv molekularining bir biriga ishqalanishi natijasida issiqlikning ajralib chiqishi tajribalar asosida tadqiq qilindi.

O'YUCH elektromagnit maydon ta'sirida dastlabki ishlov berish jarayonining tajriba qurilmasi 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm. Meva pyuresiga O'YUCH maydonda dastlabki ishlov berish qurilmasi

1-mikroto'lqinli pech; 2-rezonator; 3- dielektrik idish; 4-boshqarish bloki; 5- mahsulot; 6-termopara; 7-tutqich; 8-mikrokontroller; 9-texnologik parametrlarni qayd qilib borish uchun kompyuter.

Ishchi kamera (rezonator) 2 ga mahsulot 5 bilan to'ldirilgan dielektrik idish 3 tutqich 7 orqali o'rnatilib, mikroto'lqinli pech 1 ning qopqog'i berkitilgach generator ishga tushiriladi. Mahsulot haroratning o'zgarishi termopara 6 orqali mikrokontroller 8 yordamida kompyuter 9 orqali qayd qilib borildi. Texnologik jarayon davomida nurlanish quvvati, nurlanish davomiyligi hamda parametrlarning o'zgarishi mikrokontroller hamda boshqarish pulti 4 orqali rostdab turilishi ko'zda tutilgan.


Nurlanish chastotasi 2450 MHz, magnetron quvvati 400, 600 hamda 800 Vt oraliqlarida 60, 90 va 120 sek davomida pyurega dastlabki issiqlik ishlov berish amalga oshirilib mahsulot tarkibidagi harorat o'zgarishlarini tavsiflovchi grafiklar olindi (2-rasm). Grafikdan ko'rinib turibdiki, O'YUCH elektromagnit maydon kuchlanganligining 400÷800 Vt oralig'ida astila massasiga 60, 90, 120 sek davomida ishlov berilganda 57⁰C÷72⁰C oralig'ida harorat o'zgarishlari kuzatildi.



2-rasm. Pastila haroratning vaqt birligida o'zgarish grafigi

- 1- $W=78\%$, $Q=400Vt$; $\tau=60sek$; — 2- $W=84\%$, $Q=800Vt$; $\tau=90sek$;
- 3- $W=78\%$, $Q=400Vt$; $\tau=120sek$; — 4- $W=84\%$, $Q=800Vt$; $\tau=120sek$.

Meva va sabzavotlarning 3 xil modulli nisbatlarining aralashmasi asosida tayyorlangan pyureni quritish uchun kontaktli issiqlik uzatish usuliga asoslangan, ishchi kamerada siyraklanish qiymati 25-30 kPa tashkil etgan quritish qurilmasi ishlab chiqildi. Quritish qurilmasining tuzilishi 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Quritish jarayonining tajriba qurilmasi

- 1-quritish apparati; 2-qurituvchi agent xarakatlanuvchi truba; 3-mahsulot uchun taglik (paddon); 4-isituvchi element, 5-nam havo chiquvchi potrubka; 6-kondensator; 7-kondensat chiqish potrubkasi; 8-kondensat yig'gich; 9- vakuum nasos; 10-mahsulot

Ishlab chiqilgan tajriba qurilmasida meva va sabzavotlarning modulli nisbatlari asosida tayyorlangan pastila pyuresi 10, ko'p faktorli eksperiment rejasiga muvofiq pergament qog'ozi yuzasiga qatlami 4, 6, 8 mm bo'lgan qalinlik bo'yicha bir necha partiyalarda tayyorlanib, namunalar birma bir quritish kamerasidagi tagliklar 3 ga joylashtiriladi. Quritish uchun tajriba qurilmasi 1 ishga tushiriladi. Quritish jarayonida mahsulot tarkibidagi namlikni uzluksiz chiqarib turish uchun isituvchi agent sifatida suvning issiqligidan hamda sistemada siyraklanish hosil qilish tizimidan foydalanish mexanizmi ishlab chiqilgan. Isituvchi agent – suyuqlik element 4 orqali uzluksiz ravishda isitilib, tagliklar ostiga joylashtirilgan mis trubalar orqali sirkulyatsiyalanishi natijasida hosil bo'lgan issiqlik natijasida tagliklarda joylashtirilgan mahsulot tarkibidan ajralib

chiqayotgan nam havoni potrubka 5 orqali chiqarib yuborilishi ta'minlanadi. Mahsulot tarkibidan ajralib chiqayotgan nam havo siyraklanish hosil qiluvchi nasos 9 orqali so'rib turiladi. Nam havo kondensator 6 orqali kondensatsiyalanib 8 yig'gichga uzatilishi ta'minlangan. Nam havoni uzluksiz ravishda kondensatsiyalash uchun sovutuvchi agent sifatida suyuqlikdan foydalaniladi. Mahsulotni quritish uchun bir vaqtning o'zida isituvchi agentning issiqligidan hamda sistemaga hosil qilingan, atmosfera bosimidan past bo'lgan 25÷30 kPa da siyraklanish qo'llaniladi.


Ishlab chiqilgan ko'p faktorli eksperiment rejasiga muvofiq, pastila tarkibini tashkil etuvchi meva va sabzavotlarning massaviy nisbatlari, qatlam qalinligi, quritish jarayoni davomiyligining chegaraviy qiymatlari oralig'ida bir qator tajribalar o'tkazildi (1-jadval). Meva va sabzavotlarning modulli 2:1:1; 1:2:1; 1:1:2 nisbatlari bo'yicha "olma+olxo'ri+xo'raki qizil lavlagi", "olma+o'rik+xo'raki qizil lavlagi" hamda "olma+shaftoli+xo'raki qizil lavlagi" aralashmalari asosida tayyorlangan pastila pyuresini quritish jarayonining qonuniyatlari o'rganildi.

1-jadval

Eksperiment rejasining matritsasi

No	X_1	X_2	X_3	X_1X_2	$X_2 X_3$	$X_1 X_3$	$X_1 X_2X_3$	u_1	u_2	u_3	$U_{o'rt}$
1	-	-	-	+	+	+	-	23,1	22,7	23,0	22,9
2	-	+	-	-	-	+	+	23,3	23,0	22,9	23,06
3	+	-	-	-	+	-	+	21,6	19,8	20,7	20,7
4	+	+	-	+	-	-	-	24,7	23,7	24,3	24,2
5	-	-	+	+	-	-	+	19,2	18,9	19,4	19,2
6	-	+	+	-	+	-	-	20,9	19,3	20,3	20,16
7	+	-	+	-	-	+	-	21,1	20,7	21,4	21,06
8	+	+	+	+	+	+	+	22,9	23,01	23,00	23,3
9	0	0	0					19,4	19,7	18,9	19,3

Yuqorida keltirilgan modulli nisbatlarning har xil qatlam qalinliklari bo'yicha tajribalar o'tkazilib, quritish jarayonining kinetikasini tavsiflovchi grafiklar olindi (4-rasm).




4-rasm. Pastila pyuresini quritish jarayonining egri chizig'i (olma+olxo'ri+xo'raki qizil lavlagi misolida)

Olingan natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak 4-rasmdan ko'rinib turibdiki, 2:1:1 modulli nisbat bo'yicha tayyorlangan aralashmaning boshlang'ich namligi 84,3% ni, namuna massaning 50 %ni olma pyuresi tashkil etishi hisobidan 1:2:1 modulli aralashmaga nisbatan 2,8 %, 1:1:2 modulli aralashmaga nisbatan esa 2,4 % ko'p miqdorda erkin namlikning ajralib chiqishi va muvozonat namligi 21,9 % tashkil etishi kuzatildi (1-egri chiziq).

Shuningdek, 1:2:1 nisbat bo'yicha tayyorlangan aralashmaning muvozonat namligi 24,7% (2-egri chiziq), 1:1:2 nisbat bo'yicha esa 22,3 % (3-egri chiziq). Uch xil modulli nisbatda tayyorlangan namunalarning qatlam qalinliklari 8 mm tashkil etadi.

Ushbu modulli nisbatlar bo'yicha tayyorlangan pastila pyuresi qatlam qalinligining $\delta=4$ mm diapazonida quritish jarayonining davomiyligini xarakterlovchi grafiklar ham olindi (5-rasm). Tadqiqot natijalariga ko'ra, qatlam qalinligi $\delta=4$ mm bo'lgan pastila pyuresini quritish jarayonining davomiyligi 5,5÷6 soatni tashkil etayapti. Pastila pyuresining yuqorida keltirilgan modulli nisbatlari bo'yicha olingan natijalarda ham muvozonat namlik chegaralari orasida bir muncha farq mavjud.




5-rasm. Pastila pyuresini quritish jarayonining egri chizig'i

Demak aralashma tarkibining modulli nisbatlarining o'zgarishi, o'z navbatida muvozonat namlikga ham ta'sir etadi. Tarkibiy qismi 50% olma pyuresidan tashkil topgan pastilaning namlikni chiqarib yuborish xususiyati yuqoriligi tufayli muvozonat namligi 19,1% (1-egri chiziq), tarkibi 50% olxo'ri hamda 50% lavlagi pyuresidan tashkil topgan pastilada quruq modda miqdori ko'pligi sababli muvozonat namlik chegaralari 21,2% va 20,4% tashkil etishi aniqlandi.

Shuningdek boshlang'ich namligi 78,5%, qatlam qalinliklari 6,8,10 mm tashkil etgan, 2:1:1 modulli sistema asosida tayyorlangan pyure namunalarning quritish jarayoni tezligini ifodalovchi egri chiziqlari keltirilgan (6-rasm). Grafikdan ko'rinib turibdiki, quritish jarayonining doimiy quritish tezligi (I) davrida qatlam qalinligi 6mm bo'lgan namuna tarkibidan minutiga 0,22 %, 8 mm namuna tarkibidan 0,19 %, 10 mm bo'lgan namuna tarkibidan 0,162 % namlik ajralib

chiqayapti. Xulosa shundan iboratki qatlam qalinligi oshishi bilan quritish tezligi kamayib boradi.



6-rasm. Quritish jarayoni tezligining egri chizig‘i.

Quritilgan pastila namunalarining strukturasi, tashqi ko‘rinishi hamda sifati bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tarkibida suvda eruvchi moddalari saqlab qolingan pastila tayyorlash tizimini tadbiq etish, sifatli pastila olish imkonini beradi. Agar tayyorlangan pyure tarkibidan tindirish orqali suyuqlik chiqarib yuborilsa, bir xil strukturaga, yumshoq yoki elastik xususiyatga ega bo‘lgan quritilgan pastila olish imkoniyati mavjud emas. Ushbu qonuniyatni asoslash maqsadida aralashtirish orqali hosil qilingan “olma” pyuresining tarkibidan tindirish, filtrlash orqali suyuqlik chiqarib yuborilib, xomashyoni quritish jarayoni amalga oshirildi.

Quritilgan pastila strukturasi yuzasida ko‘pgina yoriqlar mavjud bo‘lib, sinish xususiyatining yuqoriligi, namunada mo‘rt xususiyat hosil bo‘lganligi kuzatildi. Ammo, meva va sabzavotlar “olma+o‘rik+xo‘raki qizil lavlagi” aralashmalari asosida tayyorlangan pyurening tarkibida hosil bo‘lgan suyuqlikni saqlagan holda quritib olingan pastila esa yumshoq hamda egiluvchan struktura hosil qilishi tajribalar asosida aniqlandi (7-rasm).



7-rasm. “olma+o‘rik+xo‘raki qizil lavlagi” pastilasi

Quritilgan pastila butun hajm va yuzasi bo‘yicha bir xil strukturani tashkil etib, yumshoq, egiluvchanlik strukturaga ega bo‘lib, kesish orqali xar xil shakl hosil qilish mumkin. Muvozonat namlik chegarasi 19,4÷21,9% oraliqni tashkil etadi.

Shuningdek “olma+olxo‘ri+xo‘raki qizil lavlagi” hamda “olma+shaftoli+xo‘raki qizil lavlagi” aralashmalari asosida quritilgan pastila

strukturalari rangi bo'yicha bir biridan farq qilsada yumshoq, egiluvchan strukturani tashkil etishi tajribada o'z tasdig'ini topdi.

8-rasmda alohida alohida quritilgan pastila namunalari keltirilgan: 1-faqatgina oq shaftoli pyuresini quritish orqali olingan pastila; 2-“olma+shaftoli+xo'raki qizil lavlagi” pyuresining pastilasi; 3- “olma+olxo'ri+xo'raki qizil lavlagi” pyuresining pastilasi; 4-faqatgina xo'raki qizil lavlagi pyuresining pastilasi.



Aralashma nisbatlari 1-100% oq pishar shaftoli; 2-olma 25%, shaftoli 50%, xo'raki qizil lavlagi 25%; 3-olma 25%, olxo'ri 50%, xo'raki qizil lavlagi 25%; 4-100% xo'raki qizil lavlagi.

8-rasm. Quritilgan pastila namunalari

Dissertatsiyaning “Tizimli tahlil. Meva, sabzavotlar pastilasini dastlabki suvsizlantirish va quritish jarayonini matematik modellashtirish” deb nomlangan uchinchi bobida tizimli yondashuv asosida pastila pyuresini tayyorlash, dastlabki ishlov berish va quritish bosqichlari tahlil qilinib, mexanik, issiqlik va modda almashinuv jarayonlarining o'zaro bog'liqligini ifodalovchi matematik ifodalar keltirilgan.

Tadqiqot ishining ushbu bo'limida, har xil turdagi meva va sabzavotlar aralashmasi asosida gomogen sistemani hosil qilish, dastlabki ishlov berish va quritish jarayonini amalga oshirish bosqichlari tahlil qilingan.

Texnologik jarayonning birinchi bosqichida bir jinsli sistemalarni hosil qilish uchun aralashtirish jarayonining gidrodinamik qonuniyatlari o'rganilib, diffuziya koeffitsiyenti oqimning ko'ndalang hamda bo'ylama harakatiga bog'liqligi asoslangan. Aralashmani bir o'lchovli sistema sifatida qabul qilib, aralashtirish koeffitsiyenti orqali oqim strukturasi diffuziya modelini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$\frac{\partial c}{\partial \tau} + \vartheta_{or} \cdot \frac{\partial c}{\partial x} \cdot \frac{\partial c}{\partial y} \cdot \frac{\partial c}{\partial z} = \frac{\partial^2 c}{\partial x^2} \cdot \frac{\partial^2 c}{\partial y^2} \cdot \frac{\partial^2 c}{\partial z^2} \quad (1)$$

Tenglamadan ko'rinib turibdiki, aralashtirish jarayoni davomida pyurening apparat ichidagi xarakat trayektoriyasi fazoviy xarakterga ega bo'lib, X, Y, Z, kordinatalar bo'yicha ko'ndalang va bo'ylama xarakatni hosil qiladi. Aralashtirgichdagi ishchi organning aylanma harakati natijasida xomashyoni aralashish trayektoriyasi ikki xil zona bo'yicha hosil bo'lib, markaziy zona $0 \leq r \leq r_m$ oraliqni, yon tomon (periferiya) zona esa $r_m \leq r \leq D/r$ oraliqni tashkil etadi.

Xomashyoni aralashtirish jarayonining intensivligi, ishchi kameraning markaziy va yon tomon zonalaridagi sarf, hamda bo'ylama va ko'ndalang trayektoriyalar bo'yicha hosil bo'ladigan turbulent diffuziya tezligi bilan ifodalanadi:

$$D_{\tau} = l^2 \left| \frac{du(r)}{dr} \right| \quad (2)$$

bu yerda: l – aralashtirish zonasining uzunligi (aralashtirigich radiusi), m;
 $\left| \frac{du(r)}{dr} \right|$ – radius bo‘yicha xomashyoning aylanma tezlik gradiyenti.

Obyekt sifatida tadqiq qilinayotgan meva va sabzavotlar yanchilmasini aralashtirish orqali bir jinsli (gomogen) sistema hosil qilish uchun gidrodinamikaning o‘xshashlik kriteriyasiga asosan $G_D = D/d_m$ nisbat bo‘yicha $G_D > 1,5$ shartga muvofiq aralashtirish jarayoni amalga oshirildi. Shunga ko‘ra, moddaning butun hajmi bo‘yicha turbulent aralashish koeffitsiyentini quyidagi soddalashtirilgan tenglama orqali ifodalaymiz:

$$D_T = 0,435 \cdot n \cdot d_m \cdot \sqrt[3]{\frac{Z_m \zeta}{G_D^2 \gamma}} \quad (3)$$

bu yerda: ζ – ishchi organning qarshilik koeffitsiyenti, 0,88; Z_m – ishchi organ konstruksiyasini xarakterlovchi kattalik, γ – apparatning mahsulot bilan to‘lish balandligini ifodalovchi koeffitsiyent, $\gamma = l \cdot \frac{H}{D} + \rho$.

Aralashtirigich orqali hosil qilingan pyure tarkibidagi namlikning ajralib chiqishini jadallashtirish maqsadida, pyure tegishli qatlam qalinliklari bo‘yicha paddonlarga joylashtirilib, O‘YUCH elektromagnit maydonida dastlabki ishlov berish rejimi qo‘llanildi. O‘YUCH elektromagnit maydon ta’sirida kapillyar–g‘ovak strukturali mahsulotlar tarkibidagi namlikning gaz muhitiga o‘tishi, fazalarni ajratish chegaralaridagi namlikning siljish gradiyentiga bog‘liq. Shunga ko‘ra, mahsulot tarkibidagi namlikning o‘zgarishini yoki umumiy holda modda oqimini quyidagi tenglama orqali ifodalaymiz:

$$\frac{dW}{F d\tau} = \pm K \rho_m \left(\frac{dX}{dl} + \sigma \frac{dt}{dl} \right), \quad (4)$$

bu yerda: W – namlik miqdori, kg; $K = f(x, t)$ – massa o‘tkazish koeffitsiyenti m^2/s ; t – mahsulot harorati, $^{\circ}C$; ρ_m – mahsulotning zichligi, kg/m^3 ; F – issiqlik uzatish yuzasi, m^2 ; σ – issiqlik va namlik o‘tkazuvchanlikning kinetik koeffitsiyenti, ya’ni namlik konsentratsiyasi va muhit haroratlari funksiyasini xarakterlaydi, $grad^{-1}$; X – nam saqlashi, (kg/kg); τ – jarayonning davomiyligi, s; l – mahsulot konsentratsiyasining o‘zgarishi bo‘yicha normal, m.

K va σ koeffitsiyentlar mahsulotdagi namlik va harorat funksiyalari hisoblanadi. Shuning uchun mahsulot ichki strukturasiidagi namlikning bir qatlamdan ikkinchi bir qatlamga siljishini issiqlikning harakat qonuniyati asosida tavsiflaydigan bo‘lsak, u holda Fyuringning issiqlik o‘tkazuvchanlik qonuniyatiga muvofiq:

$$\frac{dQ}{F d\tau} = -\lambda \frac{dt}{dl}, \quad (5)$$

bu yerda: λ – issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti, $Vt/m^{\circ}C$; Q – issiqlik miqdori, kJ.

O‘YUCH elektromagnit maydonida dastlabki ishlov berish suvsizlantirish hamda quritish jarayonida mahsulot namligi eksponensial qonuniyat asosida o‘zgaradi deb qaraydigan bo‘lsak, u holda namlikning vaqt birligida o‘zgarishini quyidagi formula orqali ifodalaymiz:

$$\frac{\ln(W_b - W_0) - \ln(W - W_0)}{\tau - \tau_0} = k_1 \quad (6)$$

bu yerda: W_b, W, W_0 -mahsulotning boshlang'ich, joriy hamda oxirgi namligi, % . τ_0 -ishlov berish boshlangan daqiqadan boshlab hisobga olib boriladi (muvozanat namlik chegarasigacha bo'lgan vaqt), sek.; τ -boshlang'ich namlikdan muvozonat namlikgacha bo'lgan quritish vaqti, sek. Quritish koeffitsiyenti k_1 esa ishlov berilayotgan namuna qalinligi δ ning funksiyasi hisoblanadi.


Shunga ko'ra, vaqt birligida mahsulot namligi W ning o'zgarishini quyidagi bog'liqlik orqali ifodalaymiz:

$$\lg u = \lg \frac{W - W_0}{W_b - W_0} = f(\tau) \quad (7)$$

(6) va (7) tenglamalar yordamida joriy namlik W ning har bir nuqtadagi o'zgaruvchan qiymati uchun pastilaning qatlam qalinligi kesimida namlikning o'zgarishi bo'yicha jarayonining davomiyligini aniqlaymiz:

$$\tau = \frac{1}{k_1} \ln \frac{W - W_m}{W_b - W_m} \quad (8)$$

Yuqorida keltirilgan tenglamalar orqali O'YUCH maydon ta'sirida pastilani dastlabki suvsizlantirish jarayonining davomiyligi aniqlanib, mahsulotning qatlam qalinligi bo'yicha namlik o'zgarishini ifodalovchi bog'liqlik $\ln(W - W_m) = f(\tau)$ va $\lg(W - W_m)/(W_b - W_m) = f(\tau)$ funksiyalari olindi (9-rasm).



9-rasm. O'YUCH maydon ta'sirida pastila namligining vaqt bo'yicha o'zgarishi

Grafikdan ko'rinib turibdiki, boshlang'ich namligi 83,2%, qatlam qalinligi 2 mm bo'lgan pastilaga O'YUCH maydon ta'sirida 90 sek davomida ishlov berilganda namuna namligining 6 % kamayishi kuzatilib, so'ngi namligi 77,2% tashkil etayapti. Qatlam qalinligi 4 mm bo'lgan pastilaning namligi esa 120 sekund davomida 5,1% kamayib, so'ngi namligi 78,1%, qatlam qalinligi 6 mm bo'lgan namuna tarkibidan 120 sekund davomida ajralib chiqayotgan namlik miqdori 3,1% tashkil etayapti. Logarifimik bog'liqlik funksiyalari bo'yicha olingan natijalar quyidagicha:

egri chiziq "1"- $\delta = 2\text{mm}; \ln = 4,35; \tau = 90\text{sek}, T = 65^\circ\text{C}, W_0 = 77,2\%$

egri chiziq "2"- $\delta = 4\text{mm}; \ln = 4,32; \tau = 120\text{sek}, T = 72^\circ\text{C}, W_0 = 78,1\%$

egri chiziq “3”- $\delta = 6\text{mm}; ln = 4,36; \tau = 120\text{sek}, T = 78^\circ\text{C}, W_0 = 80,1\%$

Meva va sabzavotlar pyuresiga ishlov berishning so‘ngi bosqichi quritish jarayoni hisoblanib, ushbu bosqichda namunalarning elementar qatlamlari bo‘yicha namlik va issiqlik tarqalishini ifodalovchi differensial tenglamalar ishlab chiqildi.

Quritish jarayonining moddiy va issiqlik balans tenglamalari tuzilib, mahsulot tarkibidan ajralib chiqayotgan issiqlik miqdorini, quritilayotgan mahsulotning butun hajmi hamda qatlamlari bo‘yicha vaqt birligida harorat va namlik o‘zgarishini ifodalovchi differensial tenglamalar ishlab chiqildi. Pastila tarkibidan ajralib chiqayotgan issiqlik miqdori:

$$Q_{chiq} = -\frac{\lambda \cdot F_s}{h_k} \cdot (t_1 - t_2) \quad (9)$$

bu yerda: λ - issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti, (Vt/m.K); t_1, t_2 - mahsulotning boshlang‘ich va oxirgi harorati, $^\circ\text{C}$; h_k - qatlam qalinligi, mm.


Mahsulotning butun hajmi hamda kvazi qatlamlari bo‘yicha harorati va namlikning vaqt birligida o‘zgarish tezliklarini ifodalovchi differensial tenglamalar sistemasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\left\{ \begin{array}{l} \frac{dt}{d\tau} = \frac{q + \alpha \cdot F_s \cdot (t_a - t_1) - \frac{\lambda \cdot F_s}{\Delta h} \cdot (t_1 - t_2)}{m \cdot c} \\ \frac{dt_1}{d\tau} = \frac{q_1 + \alpha \cdot F_s \cdot (t_a - t_1) - \frac{\lambda \cdot F_s}{\Delta h} \cdot (t_1 - t_2)}{m \cdot c} \\ \frac{dt_i}{d\tau} = \frac{q_i - \frac{\lambda \cdot F_s}{dh} \cdot (t_{i-1} - 2t_i + t_{i+1})}{m \cdot c} \\ \frac{dt_{i-5}}{d\tau} = \frac{q_{i-5} - \frac{\lambda \cdot F_s}{dh} \cdot (t_{i-4} - t_{i-5}) - \alpha_n \cdot F_n \cdot (t_{i-5} - t_n)}{m \cdot c} \end{array} \right. - G \cdot it \quad (10)$$

$$\left\{ \begin{array}{l} \frac{dw_k}{d\tau} = \frac{(-\beta \cdot F_s \cdot (X_k - X_p) + KDt \cdot F_s / dh \cdot (X_1 - X_k))}{m_k} \\ \frac{dX_1}{d\tau} = \frac{(-\beta \cdot F_s \cdot (X_1 - X_p) + KDt \cdot (X_2 - X_1))}{m} \cdot (1 - X_1)^2 \\ \frac{dX_i}{d\tau} = \frac{(KDt \cdot F_s / dh \cdot (X_{i-1} - 2X_i + X_{i+1}))}{m} \\ \frac{dX_5}{d\tau} = \frac{KDt \cdot (X_{i+1} - X_5)}{m} \cdot (1 - X_5)^2 \end{array} \right. \quad (11)$$

MATLAB dasturiy paketi asosida yuqorida keltirilgan matematik model asosida quritish jarayoning davomiyligini, vaqt birligida namlik va harorat o‘zgarishini ifodalovchi egri chiziqlar olindi (10-rasm).

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, qatlam qalinligi $\delta = 6\text{mm}$ bo‘lgan pastilani quritish jarayonining davomiyligi 440÷450 minut oralig‘ida mahsulotning muvozonat namlik chegarasi 18,1÷18,2%, mahsulot qatlamlari bo‘yicha o‘rtacha harorat esa 65÷67 $^\circ\text{C}$ tashkil etayapti.



10-rasm. Pastilani quritish egri chizig‘i va harorat o‘zgarishi grafiklari

Dissertatsiyaning “**Pastila xomashyosini tayyorlash va uni quritish jarayonining texnologik parametrlari va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida meva va sabzavotlarning maqbul modulli nisbatlari asosida pyure tayyorlash hamda quritilgan pastila ishlab chiqarishning texnologik tizimini sanoat miqyosida tadbiiq etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Taklif etilgan quritish tizimida pastilaning boshlang‘ich va quritishdan so‘ngi qatlam qalinliklari hamda namlik darajalarining o‘zgaruvchanlik chegaralari tajribalar asosida tadqiq qilinib, qatlam qalinligi 4 mm bo‘lgan pastilani quritish davomiyligi 5,5-6 soatni, harorati 68-71⁰C, quritilgan pastilaning qalinligi 1,2±01 mm, muvozonat namlik miqdori 19,1±0,2% tashkil etishi asoslangan. Shuningdek qatlam qalinligi 6,8,10 mm bo‘lgan namunalar bo‘yicha ham ushbu parametrlarning maqbul qiymatlari tajribalar asosida aniqlangan. Bir tonna tayyor meva va sabzavotlar pastilasini ishlab chiqarish uchun xomashyo miqdori, tannarxi hamda elektroenergiya sarfi bo‘yicha hisoblashlar amalga oshirilib, texnologik tizimning samaradorligini xarakterlovchi ko‘rsatkichlar aniqlandi. Tadqiqot ishida turli xil meva va sabzavotlarning aralashmasi asosida tayyorlangan pyureni quritish orqali pastila olish jarayonining iqtisodiy ko‘rsatkichlarini hisoblash uchun 2024 yil mobaynida yetishtirilgan 1 kg mahsulotning narxi quyidagicha qabul qilib olindi. 1kg olma 4200 so‘m, shaftoli 5300 so‘m, o‘rik 6000 so‘m, olxo‘ri 6400 so‘m hamda lavlagi 3800 so‘m. Ishlab chiqarish korxonasiining faoliyatini hisobga olgan holda sotuvdan tushgan daromad-202.477.000 so‘mni tashkil qilmoqda.

XULOSA

1. Meva va sabzavotlarning maqbul modulli nisbatlarining miqdoriy ulushlari tajribalar asosida aniqlanib, pastila pyuresini tayyorlash uchun aralashtirish jarayonining gidrodinamik qonuniyatlari va aralashtirish jarayonida turbulent oqim strukturasiini ta‘minlash zarurligi o‘rganilgan.

2. Pastila pyuresini hosil bo‘lish samaradorligi, aralashtirgich ishchi organining aylanishlar soniga, konstruksiyasiga, aralashtirish jarayonining davomiyligiga bog‘liqligini ifodalovchi grafiklar olingan.

3. Kapilyar-g‘ovak strukturani tashkil etuvchi xomashyo tarkibida suyuqlik tomchilarini ushlagan hujayralarni yorish, moddaalmashinuvni jadallashtirish maqsadida O‘YUCH elektrmagnit maydonida dastlabki ishlov berish rejimlari asoslangan.

4. Pastilani quritish uchun kontaktli issiqlik uzatish usuliga asoslangan, vakuum ostida ishlovchi avtomatik boshqaruv sistemasi bilan ta‘minlangan tajriba qurilmasi ishlab chiqilgan. Ko‘p faktorli tajriba rejasi ishlab chiqilib, pastila pyuresini quritish jarayoniga ta‘sir etuvchi omillarning maqbul chegaraviy qiymatlari bo‘yicha quritish jarayoni hamda quritish tezligining egri chiziqlari olingan.

5. Meva va sabzavotlarning maqbul modulli aralashmasi (“olma+o‘rik+xo‘raki qizil lavlagi”; “olma+olxo‘ri+xo‘raki qizil lavlagi”; hamda “olma+shaftoli+xo‘raki qizil lavlagi”) asosida yumshoq konsistensiyali,

egiluvchan strukturaga ega bo'lgan quritilgan pastila olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

6. Ideal aralashish modelidan foydalanib aralashtirish jarayonini tavsiflovchi matematik model ishlab chiqilgan. Pastila pyuresini quritish jarayonining matematik modeli ishlab chiqilib, MATLAB dasturi asosida mahsulotning kvazi qatlamlari bo'yicha namlik va harorat o'zgarishini ifodalovchi grafiklar hamda kompyuter modellari qurilgan.

7. Quritilgan pastila ishlab chiqarish jarayonining texnologik sxemasi ishlab chiqilib. Ko'p faktorli eksperiment rejasi asosida o'tkazilgan tadqiqotlar asosida 180 kg pyuredan quruq modda miqdori 75% tashkil etgan o'rtacha 27-30 kg ($15 \div 17\%$) pastila olishga erishilgan.

8. "Gala River" qo'shma korxonasi va "LIVADIYA BUKHARA" MCHJ ning ishlab chiqarish sharoitida tajriba-sanoat sinovlari o'tkazilgan. Ishlab chiqarish sharoitida 1 tonna pastila ishlab chiqarish uchun xomashyo sarfi, kapital va amortizatsiya xarajatlari hisoblangan. Sinov natijalariga ko'ra meva va sabzavotlar pastilasini quritish uchun taklif etilayotgan kichik ish unumdorlikka ega noan'anaviy quritish qurilmasi energiya xarajati bo'yicha yuqori samaradorlikka ega ekanligi e'tirof etilgan. Joriy etish samaradorligiga - minimal energiya sarfini ta'minlash, quritish tizimining optimal rejimlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, quritilgan mahsulot tarkibidagi biologik faol moddalarni saqlab qolish asos bo'lib xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/28.02.2022.Т.101.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

НАВОИЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХОЛИКОВ МУХРИДИН МАРДИКУЛОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА СУШКИ ПРИ
ПРИГОТОВЛЕНИИ ФРУКТОВО-ОВОЩНЫХ ПАСТИЛ**

**02.00.16 - Процессы и аппараты химических технологий и пищевых
производств**

**АВТОРЕФЕРАТ диссертации доктора философии (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухара - 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.3.PhD/T4602.

Диссертационная работа выполнена в Навоийском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета по адресу (www.bstu.uz) и информационно-образовательном портале «Ziynet» по адресу (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Джураев Хайрулло Файзиевич доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Курбонов Жамилел Маджидович доктор технических наук, профессор Баракаев Нусратилла Ражабович доктор технических наук, профессор
Ведущая организация:	Наманганский государственный технический университет

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/28.02.2022.T.101.01 при Бухарском государственном техническом университете 5 декабря 2025 г. в 09⁰⁰ часов. (Адрес: 200117, г. Бухара, ул. К. Муртазаева, дом-15. Тел.: (+99865) 223-78-84, факс: (+99865) 223-78-84, e-mail: bmti_@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного технического университета (зарегистрировано №402). (Адрес: 200117, г. Бухара, ул. К. Муртазаева, дом-15. Тел.: (+99865) 223-78-84.)

Автореферат диссертации разослан 21 ноября 2025 года.

(реестр протокола №13 от 9 сентября 2025 года).



С.Ф. Фозилов

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, профессор

А.Т. Олтиев

Ученый секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, доцент

Н.Б. Исабаев

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации (PhD) доктора философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире наблюдается высокий рост производства высококачественных сушеных продуктов с длительным сроком хранения, обогащённой витаминами, путем комплексной переработки фруктов и овощей. Одним из приоритетных направлений пищевой промышленности является производство сушёной пастилы, изготовленной из различных фруктов и овощей, сохраняющей свои природные свойства, богатой витаминами и обладающей мягкой структурой. Соответственно, при создании новых видов кондитерских изделий, разработке новых добавок к кондитерским изделиям и сладостям, а также при организации системы производства сушёной пастилы на основе переработки гомогенного пюре, полученного из смеси различных фруктов и овощей, особое значение приобретает разработка энергоэффективных технических средств и технологий для реализации гидромеханических, тепловых и массообменных процессов.

Во всём мире ведутся исследования, направленные на создание современных комплексных технологий и технических решений, соответствующих требованиям времени, разработка эффективной системы производства пюре и пастилы из определённых видов фруктов и овощей. В этом направлении особое внимание уделяется исследованию гидромеханических процессов, реализуемых при получении пюре - основного сырья для пастилы, определению оптимальных модульных соотношений различных видов фруктов и овощей при приготовлении пюре, а также обеспечению однородности структуры пастилы по всему её объёму в процессе сушки.

